

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARNI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI SAMARQAND
FILIALI**

Kompyuter injiniringi fakulteti

Axborot texnologiyalari kafedrası

5330500 – Kompyuter injiniring yo'nalishi

“Himoyaga ruxsat”

Kafedra mudiri

_____dots. Maxmudov Z.

2019 yil “___” _____

Turistlar uchun online ovqat buyurtma beruvchi web sayt yaratish

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ Asatov O.

Ilmiy rahbar: _____ Xolmatov O.

Taqrizchi: _____ Mamanazarov B.

XFX malahatchi: _____ Asrorov SH.

S A M A R Q A N D – 2019

	M U N D A R I J A	
	KIRISH.....	1
I bob.	Avtomatlashtirish va optimallashtirish axborot tizimini yaratish turlari.....	5
1.1.	Dasturiy mahsulotni yaratish maqsadi, vazifasi va qo'llanish sohalari.....	
1.2.	Avtomatlashtirish va ularni boshqarish tizimlari.....	
II bob.	Avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqishda ma'lumotlar ba'zasidan foydalanish va foydalanilgan dasturiy vositalar tavsifi.....	
2.1.	HTML,CSS, PHP, Angular va bootstrap 3 dasturlash tillari va ularning imkoniatlari.....	
2.2.	Avtomatlashtirilgan dasturiy vositani yaratish uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar bog'liqligi.....	
III bob.	Dasturiy vositani yaratish bosqichlari va undan foydalanish tavsifi haqida.....	
3.1.	Dasturiy vositani ishlab chiqish bosqichlari.....	
3.2.	Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik asoslari...	
	XULOSA.....	
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
	ILOVA.....	

KIRISH

Ayni paytdagi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan kunlarda har qanday tashkilot, muassasa yoki korxonani (qaysi shakldagi mulkchilikdan qat'i nazar) boshqarishda avtomatlashtirish katta ahamiyat talab qiladi, chunki ish qog'ozlari korxona, tashkilot, muassasa va korxonalardagi barcha munosabatlarni tartibga solib turishga katta yordam beradi. Tabiiyki barcha xujjatlarni tartibga solish, uni boshqarish anchagina qiyinchilik paydo qyadi, ushbu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida barcha ishlarni nazorat qiladigan tizim yaratishga to'g'ri keladi.

Texnologiyalarning ko'pgina masalalarni yechish zamirida axborotlarni qayta ishlash yotadi. Axborotlarni qayta ishlashni yengillashtirish maqsadida axborot tizimlari avtomatlashtirish tizimlari yaratiladi. Avtomatlashgan axborot tizimlar deb, shunday tizimlarga aytamizki, ularning qismlarida texnik vositalar, jumladan shaxsiy kompyuterlar va texnologiyalar ishtrok etadi. ATlarni keng ma'noda axborotni qayta ishlaydigan ixtiyoriy tizimni tushunish va bimalol boshqarish mumkin. Tadbqiq etish sohasiga qarab ularni, ATlar ishlab chiqarish sohasida, talim sohasida, sog'liqni saqlash sohasida, harbiy sohada va boshqa sohalarda ishlatiladigan tizimlarga ajratish mumkin. ATlarni maqsadli ishlatilishiga qarab bir qancha kategoriyalarga ajratishimiz mumkin. Jumladan boshqariluvchi, axborot qidiruv, axborot ma'lumotnoma va boshqa tizimlarga ajratiladi. Atlarni tom ma'noda ba'zi bir amaliy masalalarni yechishga ishlatiladigan apparat dasturiy vositalari majmuasi sifatida ham tushunamiz. Masalan tashkilotlarda ishlatiladigan kadrlarni hisobga olish va kuzatish, omborxona material va tovarlarni hisobga olish va nazorat qilish, buxgalter masalarini yechish va boshqalar. ATlarni asosida ma'lumotlar bazasi yotadi. MB degenda, ma'lumotlarni shunday o'zaro bog'langan to'plamini tushunamizki, u mashina xotirasida saqlanib, maxsus ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimni to'ldirilishi, o'zgartirilishi, takomillashtirilishi mumkin.

Fan va texnikaning tez sur'atlarda rivojlanishiga erishish – mamlakatimiz ishlab chiqarishining qayta tug'ilishi – iqtisodiy o'sishning, xalqning ijtimoiy moddiy farovonligining kafolatidir.

Shunindek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1730 sonli qarori, 2012 yil 1 fevraldagi “Joylarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari Respublikamizda axborot-kommunikasiya texnologiyalari taraqqiyotida yana bir muhim bosqich bo'lib qoladi. Prezidentimiz I.Karimov XXI asrni ma'naviy-ma'rifat asri, ilm-fan madaniyat va axborotlar asri deb ta'riflar ekan, bu bilan hozirgi davrning muhim belgisi va xususiyatini ham belgilab berganini payqab olish qiyin emas.

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda har bir tashkilotda ish yuritish jarayonlari ish yuritish hujjatlarini tartibga solib turish birmuncha qiyinchilik tug'diradi.

Hozirgi paytda axborotlar ustida xujjatlarni sifatli saqlash va qayta ishlashga mo'ljallangan ko'plab dasturiy vositalar mavjud. Barcha ishlarni boshqarish uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan foydalanish qulay va ish faoliyatni sifat darajasini oshiradi.

Masalaning qo'yilishi. Korxona va tashkilotlarda ish faoliyatni yengillashtirish, axborotlarni sifatli saqlash va qayta ishlashga mo'ljallangan ko'plab dasturiy vositalar mavjud. Barcha ishlarni boshqarish uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan foydalanish qulay va ish faoliyatni sifat darajasini oshirish maqsadida va php, angular js, html, css, bootstrap 3 va boshqa dasturlash muhitlaridan foydalanib dasturiy tizimni yaratish.

Ishning amaliy ahamiyati. Yaratilgan dasturiy vositadan kasalxonalarda xodimlar o'z ish faoliyatlarida foydalanishlari mumkin bo'ladi. Barcha ishlarni

boshqarish uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanib qulay va ish faoliyatni sifat darajasini oshirish.

Bitiruv ishining qismlari bo'yicha qisqacha tafsilotlar: Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa, adabiyotlar va ilovadan iborat.

Birinchi bobda avtomatlashtirish va optimallashtirish axborot tizimini yaratish turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi bobda avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqishda ma'lumotlar bazasidan foydalanish va foydalanilgan dasturiy vositalar tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Uchinchi bobda dasturiy vositani yaratish bosqichlari va undan foydalanish tavsifi, shuningdek, foydalanuvchilar uchun ko'rsatmalar, hamda kompyuterlar bilan ishlashda hayot faoliyati xavfsizligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa qismida bajarilgan ishlar bo'yicha olingan natijalar xulosasi keltirilgan.

Ilova qismida dastur matni (kodi) keltirilgan.

I bob. AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISH AXBOROT TIZIMINI YARATISH TURLARI

1.1. Dasturiy mahsulot yaratish maqsadi, vazifasi va qo'llanish sohalari

Tizim deganda bir vaqtning o'zida yagona va yaxlit deb tushuniladigan qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida birlashtirilgan elementlar obyektlar majmuyi tushuniladi. Axborot tizimiga ko'plab dasturlarni, web saytlarni, ma'lumotlar ba'zalari misol bo'ladi. Ushbu dasturiy maxsulotni yaratishning maqsadi shundan iboratki, kasalxonalarga kelgan mijozlar ko'pincha holatda navbat kutishi, biror doktorning oldiga kirishda uzoq muddatli navbat kutishlarni bartaraf etishdan iboratdir. Bu dastur meditsina sohasida kasalxonadagi bemorlar va xodimlarning ishini yengillashtirishdan iborat. Ya'ni har bir mijoz kasalxonaga keladi va registratsiya bo'limiga uchrashadi. Registratsiya bo'limida mijozga qarab qaysi vrachga va qaysi apparatlarga tushishi kerakligini belgilaydi, hamda narxini avtomatik ravishda hisoblaydi, shuningdek qaysi doktorning oldiga tekshiruvga kirishda nechanchi o'rinda turganligini bildiruvchi dasturiy ta'minot yaratiladi. Hosil bo'lgan dasturda kelgan mijozlar haqidagi ma'lumotlar ba'zida saqlanib turadi, ya'ni qaysi mijoz qachon kelgan, kimning oldiga kelgan kabi ma'lumotlar saqlanadi.

1.2. Avtomatlashtirish va ularni boshqarish tizimlari

Har bir tashkilot va korxonalarda xujjatlar ustida amallar bajarishni osonlashtirish uchun avtomatlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirish tizimlarini yaratishda esa eng asosiy o'rini ma'lumotlar bazasi tashkil etadi.

Ma'lumotlar bazasi bu muayan predmet sohasiga oid katta hajmdagi axborot massivlarini saqlash va tashkil etish vositasi hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasi predmet sohadagi joriy ma'lumotlarni aks ettirish, axborotlarni to'plash va saqlash hamda turi xil foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarga tez murojatni ta'minlashi lozim. Buning uchun bazadagi ma'lumotlar qandaydir qoidalar asosida strukturalashtirilgan bo'lishi, predmet sohadagi ob'ektlar xossalari va


ular orasidagi bog'lanishlarni aks ettirishi kerak. Ma'lumotlar bazasi ma'lumotlar banki yoki ma'lumotlar bazasi tizimi deb ataluvchi murakkab tizimning bir qismi hisoblanadi. Bu tizim ma'lumotlar bazasi, dasturiy, qurilmaviy, tashkiliy vositalarni o'z ichiga oladi hamda ma'lumotlarni markazlashgan holda to'plash va undan jamoa bo'lib foydalanishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar bazasi tizimlarining asosiy komponentlaridan biri *ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari* (MBBT) hisoblanadi. MBBT til va dasturiy vositalar majmuasi bo'lib ma'lumotlar bazasini yaratish, boshqarish va unday foydalanishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar bazasini loyihalash va joriy etishda unga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Predmet sohani aks ettirishning bir xilligi (to'liqlik, yaxlitlik, qarama-qarshi emaslik, ma'lumotlarning dolzarbligi)
- Turli xil toifadagi foydalanuvchilarning foydalanish imkoniyatlari; murojzat qilishning yuqori samaradorligi
- Do'stona interfeys
- Maxfiylik va yashirinlikni ta'minlash
- Dastur va ma'lumotlarning o'zaro mustaqilligini ta'minlash
- Ma'lumotlar bazasining ishonchliligini ta'minlash [4, 5].

Arxitekturasiga ko'ra ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bir zvenoli, ikki zvenoli va uch zvenoli turlarga bo'linadi. *Bir zvenoli* arxitekturada ma'lumotlarni boshqarish va ularni aks ettirishni ta'minlaydian yagona zveno(mijoz) mavjud bo'ladi. *Ikki zvenoli* arxitekturada ma'lumotlarni boshqarishning ko'p qismini ma'lumotlar bazasi serverlari o'z zimmasiga oladi, mijoz esa asosan ma'lumotlarni foydalanuvchi uchun qulay ko'rinishda aks ettirishni ta'minlaydi.



1-rasm. MBBT arxitekturalari: a) bir zvenoli; b) ikki zvenoli; c) uch zvenoli

Uch zvenoli MBBT larida oraliq zveno – ilovalar(dasturlar) serveri joylashgan bo'lib u ma'lumotlar bazasi serveri va mijoz o'rtasida vositachi hisoblanadi. Ilovalar serveri mijozni ma'lumotlarni boshqarishga oid har qanday vazifalardan ozod etadi va ma'lumot bazasi serveri bilan aloqasini ta'minlaydi.

Alohida qismlarining joylashishiga ko'ra MBBTlari lokal va tarmoq ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga bo'linadi.

Lokal MBBT larida barcha qismlar ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchining kompyuterida joylashgan bo'ladi. Bitta ma'lumotlar bazasidan bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchi foydalanishi uchun har bir foydalanuvchi kompyuterida lokal ma'lumotlar bazasining nusxasi bo'lishi kerak. Bu turdagi MBBT larida asosiy muammo ma'lumotlar nusxalarini sinxronlashtirish bo'lib, bir nechta foydalanuvchilarning hamkorlikda ishlashlarini talab etadigan masalalarni yechishda bu turdagi tizimlar deyarli qo'llanilmaydi.

Tarmoq MBBT lariga fayl-server, mijoz-server va taqsimlangan MBBT lari kiradi. Bu tizimlarning asosiy xususiyatlari kompyuterlarni bog'laydigan tarmoq bo'lib ko'p foydalanuvchilarning bitta ma'lumotdan foydalanishlariga imkon beradi[3, 4].

MBBT larining asosiy funksiyalari quyidagilar:

Tashqi xotiradagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish. Bu funksiya ma'lumotlar bazasiga kiruvchi ma'lumotlarni saqlash va ularga murojatni tez amalga oshirish uchun tashqi xotiraning zarur strukturalarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. MBBT larining ba'zi turlarida mavjud fayl tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanilsa, boshqalarida esa ishlar tashqi xotira qurilmasi darajasida olib boriladi. Har qanday holda ham foydalanuvchi MBBT fayl tizimidan foydalanishi yoki foydalanmasligini, fayllar qanday tashkil etilganligini bilishi shart emas. Xususiy hollarda MBBT o'zining ma'lumotlar bazasidagi ob'ektlarni nomlash tizimiga ega bo'ladi.

Operativ xotira buferini boshqarish. MBBT odatda yetarlicha katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydi. Bu ma'lumotlarning hajmi odatda mavjud operativ xotira hajmidan katta bo'ladi. Bu holda ma'lumotlarning ixtiyoriy elementiga murojat qilinganda tashqi xotira bilan ma'lumot almashish amalga oshiriladi, natijada butun tizim tashqi xotira qurilmasi tezligida ishlaydi. Bu tezlikni oshirishning yagona yo'li operativ xotiradagi ma'lumotlarni buferlashtirishdir. Shuning uchun ko'pgina MBBT lari o'zining operativ xotira buferlari to'plami va ularni almashtirish tartibiga ega.

Tranzaksiyalarni boshqarish. Tranzaksiya bu ma'lumotlar bazasi ustida bajariladigan amallar ketma-ketligi bo'lib, MBBT tomonidan bir butun holda qaraladi. Yoki tranzaksiya muvaffaqiyatli bajariladi va MBBT ma'lumotlar bazasida bu tranzaksiyalar amalga oshirgan o'zgarishlarni qayd qiladi, yoki bu o'zgarishlardan hech biri ma'lumotlar bazasining holatiga ta'sir qilmaydi. Tranzaksiya tushunchasi ma'lumotlar bazasining mantiqiy yaxlitligini ta'minlash uchun zarur.

Jurnallashtirish. MBBT lariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri tashqi xotirada ma'lumotlarning ishonchli saqlanishidir. Saqlash ishonchliligi deganda har qanday qurilmaviy yoki dasturiy nosozlik yuzaga kelganda MBBT ma'lumotlar bazasini oxirgi holatini tiklash imkoniyati tushuniladi. Qurilmaviy nosozliklar odatda ikki turga bo'linadi: yengil nosozliklar (masalan, tok

manbaining to'satdan uzilib qolishi) va qo'pol nosozliklar (masalan, tashqi xotira qurilmasidagi axborotlarni yo'qotish). Dasturiy nosozliklarga misol sifatida MBBT ishining avariya tugashi yoki foydalanuvchi dasturining avariya tugashi natijasida qandaydir tranzaksiya tugallanmay qoladi.

Har qanday holatda ham ma'lumotlar bazasini tiklash uchun qandaydir qo'shimcha axborotlarga ega bo'lish kerak. Boshqacha aytganda ma'lumotlarni ishonchli saqlashni ta'minlash uchun qo'shimcha ma'lumotlarni saqlash talab etiladi. Qo'shimcha axborotlarni ta'minlashning keng tarqalgan usuli ma'lumotlar bazasidagi o'zgarishlarni qayd qilish jurnalini yuritishdir.

Jurnal – ma'lumotlar bazasining maxsus qismi bo'lib, foydalanuvchilar unga murojat qilish imkoniga ega emas. Ma'lumotlar bazasining asosiy qismidagi barcha o'zgarishlar jurnalga yozib boriladi.

Ma'lumotlar bazasi tillaridan foydalanish imkoniyati. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun maxsus tillardan foydalaniladi va bu tillar umumiy holda ma'lumotlar bazasi tillari deb ataladi. Ilk MBBT larida o'zining funksiyalariga ko'ra ixtisoslashtirilgan bir nechta tillardan foydalanilgan. Ko'p hollarda ikkita tildan foydalanilgan: ma'lumotlar bazasi sxemasini aniqlash tili (SDL - Schema Definition Language) va ma'lumotlarni boshqarish tili (DML - Data Manipulation Language). SDL asosan ma'lumotlar bazasining mantiqiy tuzilishini belgilash uchun xizmat qilgan bo'lsa, DML ma'lumotlarni boshqarishga mo'ljallangan operatorlar to'plamiga ega bo'lgan.

Zamonaviy MBBT larida yagona integrallashgan tillardan foydalaniladi. Bu tillar ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga mo'ljallangan barcha kerakli vositalarga ega. Hozirgi kunda keng tarqalgan relyatsion MBBT larida standart til SQL (Structured Query Language) tilidan foydalaniladi. SQL tili SDL va DML vositalarini o'zida mujassamlashirgan, ya'ni relyatsion ma'lumotlar bazasining tuzilishini aniqlash va ma'lumotlarni boshqarish imkonini beradi.

Ma'lumotlar bazasi modellari

Ma'lumotlar bazasi bitta modelga yoki bir nechta modellarga asoslangan bo'lishi mumkin. Har qanday ma'lumotlar modelini o'zining xususiyatlari

bilan xarakterlanadigan ob'ekt sifatida qarash mumkin va boshqa ob'ektlar singari ular ustida qandaydir amallarni bajarishi mumkin.

Har qanday model ma'lumotlar bazasi ustida quyidagi amallarni ta'minlashi kerak:

- bazadagi ko'rsatilgan elementni izlash
- bir ma'lumotdan boshqasiga o'tish
- yozuvlar bo'yicha harakatlanish


Ma'lumotlar modellarining uchta asosiy turi mavjud: relyatsion, ierarxik va to'rli.

Ma'lumotlarning ierarxik modeli. Ierarxik ma'lumotlar bazasi 60-yillar boshida qo'llanilgan. Ular daraxt tuzilishiga ega. Bu yerda ma'lumotlar ikkita kategoriyaga bo'lingan: asosiy va bo'ysinuvchi. Shunday qilib ma'lumotlarning bir turi asosiy, quyi ierarxiya darajasidagi ma'lumotlar esa bo'ysinuvchi hisoblanadi. Mazkur model daraja, tugun, bog'lanish kabi parametrlar bilan xarakterlanadi. Bu modelning ishlash prinsipi shundayki, quyi darajadagi bir nechta tugunlar yuqoriroq darajadagi bitta tugun orqali bog'lanadi.

Ierarxik modelning asosiy xususiyatlari:

- quyi darajadagi bir nechta tugunlar yuqori darajadagi faqat bitta tugun bilan bog'langan;
- ierarxik daraxt faqat bitta ildiz ega bo'lib, boshqa hech qanday tugunga bo'ysunmaydi;
- har bir tugun o'z nomiga ega (identifikator);
- o'zak yozuvdan ma'lumotdagi xususiy yozuvgacha faqat bitta yo'l mavjud.

Umumiy holda ierarxik ma'lumotlar bazasining afzalligi xotiradan samarali foydalanish va ma'lumotlarga murojat qilish vaqtining kamligi hisoblanadi.



2-rasm. Ierarxik ma'lumotlar bazasining sxemasi

Ammo ma'lumotlarga murojat qilish vaqtining kamligini faqat yuqori darajalar uchun kuzatish mumkin. Bu turdagi ma'lumot bazasida ko'pchilik ko'pchilikka munosabatini qurib bo'lmaydi. Ierarxik ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash mexanizmiga ega emas.


Ma'lumotlarning to'rli modeli. To'rli modelda ma'lumotlar elementlari o'rtasidagi turli xil bog'lanishlarni ixtiyoriy graf ko'rinishida tasvirlash imkonini beradi va ma'lumotlarning ierarxik modelini umumlashtiradi.

Ma'lumotlarning to'rli modelida asosiy struktura "to'r" hisoblanadi. Bunday tasvirlashda to'rga bir nechta kirishlar mavjud ya'ni ma'lumotlarga murojaat bir ma'noli emas.

Bu modelning xususiyatlari: bir yoki bir nechta tugunlar birdan ortiq asosiy tugunga ega bo'lishi mumkin; murojat vaqti kirish joyiga bog'liq ravishda o'zgaradi. To'rli modelda murojaat vaqti ierarxik modelga qaraganda ko'p bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlarning to'rli modelining afzalliklari:

- ixtiyoriy bog'lanishlarni yaratish imkoniyati;
- vaqt va xotira sarfi jixatidan samaradorlik;




3-rasm. Ma'lumotlar bazasining to'rtli modeli

Kamchiliklari:

- sxemaning murakkabligi va qat'iyligi;
- ma'lumotlarning yaxlitligini o'rnatish va tekshirishning murakkabligi.

Ikkala modelning kamchiligi shundaki yangi qirralarni qo'shganda yoki yangi bog'lanishlarni o'rnatganda bazadan ma'lumotlarni yuklash, strukturani to'liq qayta generatsiya qilish, ma'lumotlarni qayta bazaga yuklashda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu holda ma'lumotlarni yo'qotish ehtimoli mavjud.

Ma'lumotlarning relyatsion modeli. Relyatsion (inglizcha *relation-munosabat*) modeller 70-yillardan boshlab keng qo'llanila boshlangan. Bunday ma'lumotlar bazasida ob'ektlar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar satr va ustunlardan iborat jadval ko'rinishida tasvirlanadi.




4-rasm. Ma'lumotlar bazasining relyatsion modeli

Har bir jadval ma'lumotlar bazasining ob'ekti hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar bazasini kompyuterda amalga oshirish qulay. Biz yaratadigan ma'lumotlar bazasi ham aynan shu modelga asoslangan.

Ma'lumotlar bazasini tashkil etadigan jadvallar magnit diskda alohida papkada joylashgan bo'ladi. Papka umumiy holda ma'lumotlar bazasi hisoblanadi, uning tarkibiga kiruvchi jadvallar esa alohida fayllar ko'rinishida saqlanadi. Ko'pgina Windows ilovalari bitta faylga bir vaqtning o'zida bir nechta ilovalar murojaat qilganda xatolik yuzaga kelganligi haqida xabar beradi. Ma'lumotlar bazasi jadvallar uchun bu noqulay, shuning uchun ularning asosiy xususiyati shundaki jadval fayliga bir vaqtning o'zida bir nechta ilovalar murojat qilishi mumkin. Bunday rejim ko'p foydalanuvchilar rejimi deyiladi. Ma'lumotlar bazasi jadval fayllariga sinchkovlik bilan qarasa u holda shuni payqash mumkinki bitta jadval uchun odatda bir nechta fayllar yaratiladi. Qo'shimcha ma'lumotlarni saqlaydigan bu fayllar bir xil nomga ega bo'lib faqat kengaytmasi bilan farq qiladi. Jadval fayllarining nomi jadval nomini bildiradi.

Har bir jadval satr va ustunlardan iborat bo'ladi. Jadval ustunlari odatda *maydonlar*, satrlari esa *yozuvlar* deyiladi. Jadval maydonlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- maydon bir jadval doirasida unikal(yagona) nomga ega bo'lishi kerak;
- maydon faqat oldindan belgilangan turdagi ma'lumotlarni saqlashi kerak
- har qanday jadval kamida bitta maydonga ega bo'lishi kerak



5-rasm. Ma'lumotlar bazasi jadvalining tuzilishi

Relyatsion ma'lumotlar bazasi jadvallari ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- jadval yisaratish yoki uning strukturasini aniqlash;
- jadval strukturasini o'zgartirish;
- jadval nomini o'zgartirish;
- jadvalni diskdan o'chirish[2, 5].

II bob. AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISHDA MA'LUMOTLAR BA'ZASIDAN FOYDALANISH VA FOYDALANILGAN DASTURIY VOSITALAR TAVSIFI

2.1. HTML, CSS, PHP, Angular va bootstrap 3 dasturlash tillari va ularning imkonatlari

HTML dasturlash tili haqida

CSS dasturlash tili haqida

PHP haqida.

Ko'pgina boshqa dasturlash tillaridan farqli ravishda, PHP qandaydir tashkilot yoki kuchli dasturchi tomonidan yaratilgan emas. Uni oddiy foydalanuvchi Rasmus Lerdorf 1994 yili o'zining bosh sahifasini interaktiv uslubda ko'rsatish uchun yaratgan. Unga Personal Home Page (PHP – shaxsiy bosh sahifa) deb nom bergan.

1995 yili Rasmus PHPni o'zining HTML formalari bilan ishlaydigan boshqa dastur bilan umumlashtirib PHP/FI Version 2 ("Form Interpretator") hosil qildi. 1997 yilga borib PHP dan foydalanuvchi saytlar 50 mingdan oshdi. Shundan so'ng web texnologiya ustalari PHP g'oyasi asosida mukammal til yaratishga Ziva Suraski va Endi Gutmans asoschiligida kirishildi. PHPni samarali deb hisoblanmagani uchun deyarli noldan boshlab, mavjud C va Perl tillaridan ibrat olib PHP3 talqinini yaratildi. 1999 yilga kelib PHP asosida qurilgan saytlar milliondan oshib ketdi. 2000 yilda esa Zend Technologies shirkati yangi ko'pgina funksiyalarni qo'shgan holda PHP4 sharhlovchisini yaratdi.

PHP – web texnologiya tili. PHPni o'rganish uchun avval HTML va dasturlash tilidan habardor bo'lish talab qilinadi. HTML/CSS va JavaScript larni mukammal bilguvchilar uchun PHPni o'rganish murakkablik tug'dirmaydi. PHPning vazifasi HTML faylini yaratib berish. JavaScript yordamida bajariladigan ko'pgina operatsiyalarni PHP orqali ham amalga oshirish mumkin, ammo e'tibor qilish lozimki, PHP – serverda; JavaScript – mijoz tomonida bajariladi. PHPda yozilgan kod serverning o'zida bajarilib, mijozga HTML shaklida etib boradi. Bu havfsizlik jihatdan ancha maqsadga muvofiq.

JavaScript yordamida kod yozish, ma'lumot uzatish va qabul qilishni biroz tezlashtirsa-da, kodni mijoz ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Baribir har ikkisini boshqasi bosa olmaydigan o'z o'ri bor, ravshanki bu o'rin PHPda muhimroq va kattaroq.

PHP tili asoslari

PHP dasturlari ikki usulda bajarilishi mumkin: Web-server tomonidan stsenariy ilovasi va konsol dasturi sifatida. PHP odatda Internet bilan bog'liq dasturlar yaratish uchun ishlatiladi. Lekin PHP dan komanda satrlar interpretatori, asosan *nix tizimlarda foydalanish mumkin. Oxirgisi CORBA va COM interfeyslar hamda PHP-GTK kengaytmasi yordamida mumkin. Bu xolda quyidagi masalalarni echish mumkin:

- Interaktiv komanda qatorlari yordamida ilovalar yaratish;
- Kross-platformali GUI ilovalarni PHP-GTK bibliotekasi yordamida yaratish;
- Windows va Linux uchun ba'zi masalalarni avtomatizatsiya qilish

Serverga brouzerning murojlat qilishida yordamida php-stsenariylari bajarilishini ko'rib chiqamiz. Avval brouzer .php kengaytmali sahifani so'raydi, so'ngra web-server dasturni PHP mashinadan o'tkazadi va natijani html-kod shaklida qaytaradi. Agar standart HTML sahifani olib, kengaytmasini .php ga o'zgartirilsa va PHP mashinadan o'tkazilsa, foydalanuvchiga o'zgartirmasdan qaytaradi. Bu faylga PHP komandani qo'shish uchun, PHP komandalarni maxsus teglar ichiga olish kerak.

Xususan biror blok ichida PHPdan chiqish mumkin, faqat keyinchalik yana uning ichiga kirib kodni tugatish sharti bilan, quyidagi konstruktsiya mumkin:

```
if(5<3){
```

```
echo(" Hello,world!");
```

```
?>
```

```
Hello!
```

```
// bu qator PHP kodi sifatida qaralmaydi

// va kod bloki bajarilayotgan bo'lsa chiqariladi

echo("Hello,world!");
}
```

?>

PHP da echo komandasi web – sahifalarda uchraydigan har qanday ma'lumotni (matn, HTML ajratuvchi simvoli, son) chiqarish uchun qo'llanadi. Uning ma'nosi misolda lo'rsatilgan.

Ushbu bo'lim PHP va MySql MBBS o'rtasidagi hamkorlik usullari bilan tanishishga mo'ljallangan. Asosiy e'tibor ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni o'rnatish, so'rovlar jo'natish funksiyalari va javoblarni (mysql_connect, mysql_query, mysql_result, mysql_num_rows, mysql_close) qayta ishlashga qaratiladi. Misol sifatida virtual tarix muzeyi ma'muriyati uchun web-interfeys tuzish masalasini ko'raylik. PHP distributivida MySQL ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan Funksiyalar mavjud. Bunda bu funksiyalarning MySql dagi ba'zi bir ma'lumotlar bazasini tasvirlash va to'ldirish maqsadida web-interfeyslarni tuzish imkonini beruvchi funksiyalar bilan tanishamiz. Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni qo'shish uchun web-interfeys bilan ishlashda bu ma'lumotlarni shunchaki html-formaga kiritish va ularni serverga jo'natish kerak bo'ladi.

Naqmoyish etishda bu interfeysni virtual muzey eksponatlari haqidagi ma'lumotlar saqlanadigan Artifacts jadvallari uchun tuzamiz. Artifacts kolleksiyasidagi har bir eksponat quyidagi xarakteristika yordamida tasvirlanishini eslatib o'tamiz:

- nom (title);
- muallif (author);
- ifoda (description);
- o'rindosh nom (alternative);
- tasvir (photo).

Nomlanish va o'rindosh nomlanish uzunasiga 255 belgidan kam satr (ya'ni VARCHAR(255)), tasvirlash – matnli maydon (TEXT turiga mansub)

hisoblanadi, “muallif” va “tasvir” maydonlarida esa Persons kolleksiyasidan muallifning identifikatorlari va Images kolleksiyasidan eksponat tasvirlariga muvofiq mavjud bo'ladi.

Ma'lumotlar bazasi interfeysi

Ma'lumotlar bazasidagi mavjud jadval strukturasini (ya'ni uning maydonlari jamlanmasini) html-formada tasvirlash uchun quyidagi tarkibiy topshiriqlarni rejalashtirish mumkin:

- MB bilan ulanishni o'rnatish;
- MB ishini tanlash;
- Jadval maydonlari ro'yxatini olish;
- html-formada maydonlarni tasvirlash.

Bundan keyin formaga kiritilgan ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasiga kiritish mumkin.

Angular dasturlash tili haqida

Angular JS Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan JavaScript frameworkdir. U bizga dasturchilarga sahifani yanada dinamik qilishda yordam beradi, AngularJS eski framework emas u 2009 ishlab chiqilgan lekin 1-versiyasi esa 2012 yil ommaga taqdim etilgan. Shu kundan beri web dasturchilar tomonidan judda keng qo'llanib kelinmoqda va dasturlashdagi eng so'nggi texnologiyalar sirasiga kiradi. AngularJS dasturida ishlash uchun avval AngularJSning rasmiy saytiga kiramiz: <http://angularjs.org> kiramiz. Downloadga kirib yuklab olamiz. Atiga bitta angular.js bitta fayli mavjud bo'ladi. Uni HTML sahifamizga ulashimiz kerak bo'ladi.

```
<!DOCTYPE html>
```

```
<html ng-app>
```

```
<head>
```

```
<title>Mening Sahifam</title>
```

```
<script type="text/javascript" src="angular.js"></script>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
</body>
```

```
</html>
```

Yuqoridagi kabi AngularJS ulanadi lekin e'tibor bering <html ng-app> yozilib AngularJS ishga tushurilmoqda ya'ni angular.js o'zini ulab qo'yish yetmaydi uni ishga tushurish uchun html tegining ichida ng-app deb yozish kerak bo'ladi.

Demak AngularJS ish uchun tayyor bo'ldi deb o'ylayman. AngularJSda ishlatiladigan barcha maxsus html teglar va atributlar direktivlar deyiladi. Direktivlar ikkita figurali qavslar orasiga yoziladi {{bu yerda direktiv yoziladi}} Direktivlar ishlashini ko'rish uchun

```
<!DOCTYPE html>
<html ng-app>
<head>
<title>Mening Sahifam</title>
<script type="text/javascript" src="angular.js"></script>
</head>
<body>
{{5+2}}
</body>
</html>
```

saqlab natijani ko'rsak sahifada 7 paydo boladi. Ya'ni direktivlarni ichiga be'malol kod yozsak bo'ladi hatto direktivkarni ichida funksiya yo'zsak bo'ladi lekin bu sal xato yo'l bo'ladi.

Yana bir misolni ko'ramiz:

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
<title>Mening Sahifam</title>
<script type="text/javascript" src="angular.js"></script>
</head>
<body>
<input type="text" ng-model="ism" />
{{ism}}
</body>
</html>
```

ko'rib turganimizdek oddiy html forma mavjud lekin unga ma'lumot yozganingizda haqiqiy mo'jiza yuz beradi. Yozgan ma'lumotlarimiz sahifada ko'rinishni boshlaydi. Bu yerda formaga ng-model atributi orqali ism modeli ko'rsatdik keyin esa pastroqda direktiv yordamida ekranga chiqardik. Agar shuni toza JavaScript o'ziningiz yozmoqchi bo'lganingizda bir necha qator yoki o'nlab qator kod yozishingizga to'g'ri kelar edi. AngularJS esa bizga bu borada yuqori darajadagi sahifa yaratishda yordam beradi.

Bootstrap dasturlash tili haqida

Bootstrap – bu yangi web texnologiya bo'lib, bu texnologiyani Twitter kompaniyasi dizayner dasturchilari yaratgan. Ushbu texnologiya faqatgina Twitterni o'zining dasturchilari uchun yaratilgan edi. Bugungi kunga kelib esa Bootstrap butun dunyo uchun bemaol foydalanib bo'ladigan web framework sifatida taqdim etilgan. Bootstrap ilk «mobile first» framework hisoblanib, unda birinchi e'tibor tayyorlangan sahifalar mobil qurilmalarda qanday ko'rinishiga qaratiladi. O'zining moslashuvchangili sabab Bootstrapda tayyorlangan sahifalar barcha hajmdagi ekranlarda bir xil chiroyli ko'rinadi. Bootstrap haqiqatdan ham front end ustalarining ishini bir necha o'n barobarga osonlashtirdi. Bir necha yil avval HTML va CSS kodlarni to'liq qo'lda yozib sayt tayyorlayotgan kishilar Bootstrapning qanchalik qulay tizim ekanligini bir necha bor ishlatib ko'rgandanoq bilib olishlari mumkin.

2.2. Avtomatlashtirilgan dasturiy vositani yaratish uchun ishlatiladigan dasturiy vositalar bog'liqligi

Aloqa o'rnatish

Bu texnologiyani yaratishda web dasturchilar brauzerlar bilan oson aloqani ta'minlagan. Shu sababli Bootstrap +8 IE'dan yuqori har qanday brauzerda ishlaydi. Keyingi darsimizda Bootstrapni o'rnatish va ilk bootstrap web ilova yaratishni ko'rib chiqamiz.

Twitter Bootstrap platformasini HTML 5 sahifaga ulash

Avvalambor ish stoliga yangi papka hosil qilamiz va uni **mysite** deb nomlaymiz. Keyin esa <http://getbootstrap.com> saytidan Twitter Bootstrap frameworkini yuklab olib **mysite** papkasiga bootstrap papkasiga tashlaymiz. Keyin esa kod yozish uchun Notepad ++ yoki Bloknout dasturini ochib, unga quyidagi kodlarni kiritamiz.

```
<!DOCTYPE html>
```

```
<html lang="uz">
```

```
<head>
```

```
<!-- Web sahifa kodirovkasi -->
```

```
<meta charset="utf-8">
```

```
<!-- Internet Explorer brauzeri uchun standartlash -->
```

```
<meta http-equiv="X-UA-Compatible" content="IE=edge">
```

```


<!-- Mobil telefon, smartfon va planshet uchun moslashuvchan qilish meta
tegi -->
<meta name="viewport" content="width=device-width, initial-scale=1.0">
<title>Twitter Bootstrap platformasini HTML 5 sahifaga ulash</title>
<!-- 1.bootstrap papkasidagi CSS Bootstrap 3'ni ulaymiz -->
<link href="bootstrap/css/bootstrap.min.css" rel="stylesheet">
</head>
<!-- Тело веб-страницы -->
<body>
<button type="button" class="btn btn-lg btn-danger" data-toggle="popover"
title="Button uchun qandaydir matn" data-content="Asosiy Popup uchun
qandaydir matn">Knopkani bosing</button>
</body>
</html>

```

III bob. **DASTURIY VOSITANI YARATISH BOSQICHLARI VA UNDAN FOYDALANISH TAVSIFI**


3.1. Avtomatlashgan axborot tizimni ishlab chiqish bosqichlari

Tizimga kirish uchun foydalanuvchi login va paroli teriladi(1-rasm).




1-rasm

Tizimga kirkandan keyin ekranda kasalxonaga kelgan bemorlar haqida baza shaklanadi(2-rasm).



2-rasm

Agar kasalxonaga kelgan bemorlarni qidirsak bemorlar haqida ma'lumotlarni ekranga chiqaradi(3-rasm).Masalan, Diora ismli mijozni qidirsak barcha Diora ismli mijozlarni chiqaradi va qaysi doktorga, qaysi kasallik bilan,qanday muolaja qo'llanilgan kabi ma'lumotlarni ko'rish mumkin.



3-rasm

Qidirishning yana bir usuli shuki malum bir sanalar oralig'ida kelgan mijozlarning ro'yxatini ham shakllantirib beradi(4-rasm).

Ma'lumotlarni izlash va tartiblash Ro'yxatdan o'tkazish Ma'lumotlarni o'chirish Chop etish

Ma'lumotlarni izlash va tartiblash

Sahifadagi ma'lumotlar soni:

Qidiruv:

2018-10-01 **2018-10-31** **Tartiblash**

Ismi	Familiyasi	Oktabr 2018							Tuman	Manzili	Telefon nomeri	Ish joyi	Passporti	Doktor	Summasi	Sanasi	
		Ya	Du	Se	Cho	Pa	Ju	Sha									
Камил	Акрамов	7	8	9	10	11	12	13	nd	Samarqand shahri	Рустам киш	933481821			Xolbayev	30000	2018-10-02
Сухроб	Салохов	14	15	16	17	18	19	20	nd	Samarqand shahri					Xolbayev	40000	2018-10-02
Суннатилло	Бахромкулов	21	22	23	24	25	26	27		Samarqand shahri	Равонак				Xolbayev	25000	2018-10-03
Шожахон	Хайитбоев	28	29	30	31					Samarqand	Jomboy tumani	Бэхор уста	994456108		Xolbayev	115000	2018-10-03
Карим	Бобоев									Samarqand	Ishtixon tumani		979224085		Xolbayev	25000	2018-10-03
Бобур	Насимов									Samarqand shahri	Бекхон маҳалласи 12	902857878			Xolbayev	40000	2018-10-03

4-rasm

Agar yangi mijozni ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lsak **ro'yxatdan o'tkazish** buyrug'ini tanlaymiz(5-rasm).

Ma'lumotlarni izlash va tartiblash Ro'yxatdan o'tkazish Ma'lumotlarni o'chirish Chop etish

Mijozni ro'yxatdan o'tkazish

LOR

Ismi

Familiyasi

Sharfi

Tug'ilgan yili

Telefon nomer

Davlatni taniang

Konsultatsiya turi

Konsultatsiya turi

Konsultatsiya summasi

Д.Д. ММ. ГГГГ

Ro'yxatdan o'tkazish

5-rasm

Ba'zadan biror mijozni olib tashlamoqchi bo'lsak ma'lumotlarni olib tashlamoqchi bo'lsak tahrirlash buyrug'i tanlanadi(6-rasm).

Ma'lumotlarni izlash va tartiblash Ro'yxatdan o'tkazish Ma'lumotlarni o'chirish Chop etish							
Ma'lumotlarni o'chirish va tahrirlash							
Ismi	Familiyasi	Sharfi	Manzili	Doktor	Summasi	Sanasi	Tahrirlash
Фирӯзшоҳ	Сафарбоев		Супер 29 квартал 21/19	Xushvaqova		2018-10-30	
Севинч	Зокирова			Xushvaqova	30000	2018-10-30	
Диёра	Бозорова			Xushvaqova	25000	2018-10-30	
Интизор	Одилова			Xushvaqova	50000	2018-10-29	
Боходир	Хамраев			Xushvaqova		2018-10-27	
Жаҳонгир	Носиров			Xushvaqova	15000	2018-10-27	
Жонибек	Темуров			Xushvaqova	50000	2018-10-27	
Курбон	Каримов		Бутушор	Xushvaqova	50000	2018-10-25	
				Xushvaqova	30000	2018-10-24	

6-rasm


Mijoz haqidagi ma'lumotlarni chop etmoqchi bo'lsak chop etish buyrug'i tanlanadi(7-rasm).

Ma'lumotlarni izlash va tartiblash Ro'yxatdan o'tkazish Ma'lumotlarni o'chirish Chop etish				
Ismi	Familiyasi	Sharfi	Doktor	Chop etish
Фирӯзшоҳ	Сафарбоев		Xushvaqova	
Севинч	Зокирова		Xushvaqova	
Диёра	Бозорова		Xushvaqova	
Интизор	Одилова		Xushvaqova	
Боходир	Хамраев		Xushvaqova	
Жаҳонгир	Носиров		Xushvaqova	
Жонибек	Темуров		Xushvaqova	
Курбон	Каримов		Xushvaqova	
Гулшода	Тугалова		Xushvaqova	
	Шарилова	1984	Xushvaqova	



3.2. Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik asoslari


Ma'lumki kundalik hayotimizni shaxsiy kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsiy kompyuterlar hozirgi kunda hayotimizning barcha taromqlariga kirib kelgan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ammo har bir qurilmadan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya qilish bu hayot talabi. Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bu kishi organizmini turli xavfli omillardan zarar topishi yoki jaroxatlanishi oldini oladi[14]. Eng avvalo kompyuterlardan foydalanishda ular uchun sanitariya va gigiyena talablariga mos holda bino tanlash va ularni yong'in xavfsizligi vositalari, birinchi tibbiy yordam qutichalari bilan jixozlash maqsadga muvofiqdir (1 -rasm).



1-rasm.Shaxsiy kompyuterlarni joylashtirish tartibi


Kompyuterlarni belgilangan masofada joylashtirish, ularda hosil bo'ladigan elektrostatik va elektromagnit maydonlarini foydalanuvchilarga ta'siri xavfini kamaytiradi. Binolarda kompyuterlarni joylashtirishda gigiyena talablarga asosan har bir foydalanuvchi shaxs uchun eng qulay ish xududini ta'minlanish talabi hisobga olinishi shart, ya'ni bir kishi uchun ish joyining hajmi elektron-nurlanishli monitorli kompyuterlar uchun 20 m^3 (ish joyi

maydoni 6 m^2 dan kam bo'lmagan holda) va suyuq kiristal monitorli komp'yuterlar uchun (ish joyi maydoni $4,5\text{ m}^2$ dan kam bo'lmagan holda) 15-20 m^3 kam bo'lmasligi kerak (2 - rasm).



2-rasm. Shaxsiy komp'yuterlardan foydalanishda ish o'rni


Kompyuterlarni shunday joylashtirish kerakki, bunda komp'yuter monitori yuzasida tabiiy yoki sun'iy yorug'lik aks ta'siri bo'lmasligi lozim, aks holda bu holat kishi ko'zini tez toliqishiga va ko'rish qobiliyatini pasayishiga olib keladi. Sun'iy yoritgichlar kompyuter monitorining yuza qismiga nisbatan chap (maxsus stol usti yoritgichlar) yoki orqa qismida (umumiy yoritish qurilmalari) O'rnatilishi va kompyuter monitorining balandligi ko'zning gorizontal ko'rish qismidan balandda o'rnatilgan bo'lishi kerak (3-rasm).



3-rasm. Shaxsiy kompyuterda ishlashda ish o'rnini to'g'ri yoritish

Komp'yuter stolida o'rnatilgan yoritgichning yorug'lik miqdori 300-500 Lk (lyuks) va komp'yuter monitorining ekranini yorug'lik miqdori 300 Lk dan va yoritilganlik quvvati 35 kd/m^2 (kandel) dan yuqori bo'lmasligi lozim. Ish joylardagi yorug'likning miqdorini amalda qo'llaniladigan Yu-116 lyuksometrlar orqali o'lchash mumkin [15].

Komp'yuterlarni o'rnatishdan oldin barcha elektr o'tkazgichlar holatini tekshiring va ularda ochiq joy bo'lishiga yo'l qo'ymang va elektr tokidan jarohatlanishni oldini olish maqsadida keltirilgan sxema asosida yerga ulang (4-rasm).




4-rasm. Shaxsiy komp'yuterni elektr tormog'iga qo'shishda yerga ulash sxemasi

Kompyuter monitorini va prosessorini havo almashuvchanlik tizimiga havoning erkin almashishi, issiqlik manbasidan uzoq masofada tutish, komp'yuter ish samardorligini va ishonchliligini oshiradi. Tizim va elektr tormog'i o'tkazgichlarini o'zaro ulashda ularni o'ralib qolishiga yo'l qo'yilmaslik lozim.

Ishlab chiqarishda samardorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri, bu xonalarda mikroiklim sharoitni qulayligi, ya'ni ish joyidagi havoning harorati, nisbiy namligi va shamolning harakat tezligining GOST 12.001.005-86 talablariga mos kelishi. GOST 12.001.005-86 ga asosan komp'yuterlar o'rnatilgan xonada havoning harorati 21...25°S, nisbiy namlik miqdori 40-60% va shamolning harakat tezligi 0,1m/s oshmasligi yoki tushmasligi lozim.

O'zbekistan Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan belgilangan talablar asosida, komp'yuterlardan professional foydalanuvchilar ishga kirishdan oldin va davriy ravishda medisina ko'riklaridan o'tishlari shart. Xomilador va emizakli farzandi bor ayollar uchun komp'yuterda ishlash zararli.

Ish o'rinini to'g'ri tashkil qilish, kishilarni turli kasbiy kasllanishlarga yo'liqishini oldini olishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Gigiyenik talablarga asosan komp'yuterdan foydalanuvchilarning monitor va ko'z orasidagi masofa, klaviaturaning to'g'ri joylashishi, ish stolining kengligi, oyoq ostidagi zinachaning me'yorida bo'lishi hamda aylanma va vertikal holati o'zgaradigan o'tirgich ishda ancha qulayliklar yaratadi (5-rasm).



5-rasm. Ish o'rnini jixozlari ko'rsatgichlari

Shunday qilib, ishlab chiqarishda xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitni yaratish, har bir rahbar va mas'ul xodimning vazifasi bo'lib, bunda nafaqat kishilarga sog'lom ish muhiti yaratiladi, balki ishlab chiqarishda samaradorlikni oshishiga ham olib keladi [16].

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабр /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.
3. М.М. Арпов, Ж.Ў. Муҳаммадиев. Информатика, Информатика технологиялари. Тошкент 2005-й.
4. J.T.Usmonov “Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi” fani bo'yicha ma'ruza matnlari toshkent – 2016
5. Мадрахимов Ш.Ф., Гайназаров С.М. C++ тилида программалаш асослари. Тошкент 2009.
6. Г.С.Иванова. Объектно-ориентированное программирование. Учебник. МГТУ им. Баумана. 2003
7. Носиров Г.А. Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан ҳимоялаш, Ўқув қўлланма, Тошкент 2003.
8. Qosimov S.S. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: Aloqachi nashriyoti, 2006. -370 b.
9. Кузнецов М.В., Симдянов И.В. PHP. Практика создания Web-сайтов. -2-е изд.перераб. и доп. –СПб.: БХВ-Петербург, 2008. – 1264 с.
10. Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан ҳимоялаш, Ўқув қўлланма, ГСЧС, Тошкент, 2003.
11. Фуқаро муҳофазаси меъёрлари ва қоидалари СНиП ИТМ ГЗ – 93, 1993.
12. <https://yiiframework.com/doc/guide/2.0>
13. www.ziyonet.uz
14. www.library.tuit.uz
15. www.tuit.uz
16. www.referat.uz

ILOVA:

Index.php

```
<!DOCTYPE html>

<html>

<head>

    <title></title>

    <?php include 'inc/css.php';?>

</head>

<body>

    <div class="container">

        <div class="row">

            <div class="col-md-4 col-md-offset-4">

                <h3 align="center" style="color: red;"><?php echo
@$_GET['success'];?></h3>

                <h3 align="center" style="color: red;"><?php echo
@$_GET['invalid'];?></h3>

                <h3 align="center" style="color: red;"><?php echo
@$_GET['logout'];?></h3>

                <h3 align="center" style="color: red;"><?php echo
@$_GET['notloggedin'];?></h3>

            <div class="panel panel-primary">

